



## XORAZMDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA UNING NAMOYANDALARI

Gulboyev Husan Shokir og'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7726807>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> March 2023

Accepted: 12<sup>th</sup> March 2023

Online: 13<sup>th</sup> March 2023

### KEY WORDS

Yosh xivaliklar jadidchilik,  
burjuaziya, Turkiston  
ma'rifatparvarlik.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada, Xorazm jadidchiligini paydo bo'lishi, yosh Xivaliklar harakatining rivojlanishi va siyosiy harakat darajasiga chiqishi haqida fikr yuritilgan.*

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi asosiy ijtimoiy-siyosiy harakat jadidchilik harakati bo'ldi. Rus bosqinidan keyin mustaqillikning yo'qotilishi, siyosiy xuquqsizlik va adolatsizlik butun jamiyat ahlini Rossiya davlatiga qarshi kuchli muholifatga aylantirdi. Ular orasida mahalliy yuqori tabaqalarning ilg'or vakillari ham bo'lib, ozodlik g'oyalari borgan sari kuch-quvvatga to'lib bordi. Bu g'oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi.<sup>1</sup>

Jadidchilik marifatparvarlikdan kuchli siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Xiva jadidlari faoliyatida ham aynan shu yo'l ko'zga tashlandi. Jadidchilik davlat, tuzum, boshqaruvchi isloh qilish va millatni rivojlantirish orqali jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan va aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan tuzum bo'lib, musulmon turkiy olamni jahon marifatli, ilmi darajasiga ko'tarish g'oyasi bilan sug'orilgan.

1917-yil fevralda Rossiyada bo'lib o'tgan ikkinchi burjua demokratik inqilobi Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonga ham ta'sir ko'rsatdi. Rossiyadagi inqilobiy voqealar Yosh Xivaliklar faoliyatini yanada faollashtirdi. Ma'lumki Yosh Xivaliklar partiyasi 1914-yil avgust oyida tashkil qilingan. Uning raisi qilib Polvonniyoz Hoji Yusupov saylangan (1861-1936).<sup>2</sup> Polvonniyoz Xoji Yusupov Xiva shahrida mayda savdogar oilasida tug'ilgan. 13 yoshida Xivaning ko'hna uslub maktabida o'qib savod chiqargan. Ota-onasidan yetim qolib amakisi Yusufboy tarbiyasida bo'lgandan so'ng, amakisi bilan savdo qilish uchun Moskvaga safarga ketgan. Turkiya, Misr, Suriya mamlakatlarida, Makkada bo'lib katta taasurotlar bilan Xivaga qaytgan. U arab, fors, rus tillarida so'zlashgan<sup>3</sup>.

Bu davrda Xiva xonligidagi jadidlar harakatiga amaldorlar, mahalliy boylar, savdo ahli musulmon ruhoniylari, ma'rifatparvar shoirlar ham maktab va madrasalarni islom dini va urf odatlarini ayrim qismlarini islox qilish dunyoviy fanlarni joriy etish, savodxonlik usullarini

<sup>1</sup>N.Polvonov "Xorazmdagi ijtimoiy xarakatlar va siyosiy partiyalar tarixi" (1900-1924) T.:2011 yil. 30-bet.

<sup>2</sup> Xorazm tarixi II-Tom.- Urganch.1997-yil.13-bet.

<sup>3</sup> Polvonniyoz Xoji Yusupov. "Yosh Xivaliklar tarixi". – Urganch, 2000-yil 6-bet.



osonlashtirish, o'quvchilarni o'z ona tilida ko'proq o'qitish va "g'ayritil" ni bilish kabi ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqqan demokratiya va adolat, istiqlool va taraqqiyot uchun kurashuvchilar harakati hisoblanadi. Ular safida bosh vazir Islom Ho'ja, qozikalon Boboovun Salimov, shoir Avaz O'tar, Devonbegi Husayn Matmurodov, sanoatchi boy Nazar sholikorov, matbaachi hunarmand Otajon Obdolov, birinchi o'zbekkino ustasi Hudaybergan Devonov, Mirzaboshi Muxammad Rasulmirzo, xonanda musiqachi Matyoqub pozochi, Otajon Safayev, Bobojon Yoqubov, Otojon Ho'janiyozov, Sobir Yoqubov va boshqalar kirgan. Ularning safi 40 dan ziyod kishini tashkil qilgan<sup>4</sup>.

XX asr boshlarida shakllangan Xiva jadidchilik harakati, asosan, ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi o'lkada rivoj topib kelayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga xonning bosh vaziri Islom Xo'ja boshchilik qilardi. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda, sotsial-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ydi.

Xiva jadidchilik harakatining so'l oqimi esa mayda burjuaziya, hunarmandlar va mehnatkashlarning turli tabaqa vakillarni birlashtirgan edi. Boboovun Salimov so'l oqimning rahbari edi<sup>5</sup>.

U butun ongli umrini adolat istiqlool taraqqiyoti uchun baxshida etgan. Boboovun Salimov maktablar ochish va darsliklar yaratish borasida ham katta ishlarni amalga oshirgan. Boboovun Salimov maslakdosh do'sti tajribali ziyokor, turkiyada ta'lim olib kelgan Bekchon Rahmonov hamkorlikda "Alifbe", "O'qish kitobi" darsligini yaratdi. Bu darsliklar mutaxassislar tomonidan yuqori baxolangan. Boboovun Salimov oliy diniy ulamo qozikalon bo'la turib, yangicha o'qitish uslubi, yangiliklarga hayrihoxlik bilan qarab, ularni shariyat aqidalaridan himoya qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan istiqlool va taraqqiyot uchun kurashchilar ishiga zimdan raxbarlik qilgan.

Xiva jadidchiligi tarixini o'rganar ekanmiz, bir narsaga alohida e'tibor bermog'imiz kerak bo'ladi. Buxoro va Turkiston jadidlaridan farqli o'laroq, xivada matbuot, gazetachilik ko'zga tashlanmaydi lekin bu harakat qatnashchilari yosh xivaliklar partiyasi raxbarlari va a'zolarining ko'plab xotira kitoblari bizgacha saqlanib qolgan<sup>6</sup>.

Xiva jadidlar harakatining so'l oqimi avval boshdanoq o'zlaring Turkistonlik fikrdoshlari qatori Xiva xonligida yangi uslubdagi jadid maktablari ochish orqali xalq ommasining siyosiy aktivligini o'stirishni o'z oldlariga maqsad qilib qo'ygan edilar. Progressiv kayfiyatdagi savdo-sotiq doiralari jadidlarning so'l oqimini quvvatlab, 1904-yili "Jamiyati xayriya"ni tuzdilar. Bu jamiyatning maqsadi jadidlarga yangi uslubdagi maktablar ochishda yordam uyushtirishdan iborat edi. "Jamiyati xayriya"ning moddiy yordami tufayli Xiva shahrida Qozondagi yangi usul "Muhammadiya" madrasasini bitkazgan Xusayn Qo'shaqov boshchiligida 1904-yil 10-noyabrda yangi uslubdagi jadid maktabi ochildi. Dastlab bu maktabda 12 ta keyinroq esa, 55 ta bola ta'lim oldi. Shulardan 15 nafari o'zbek bolalari edi. Jadidlar yordamida 1906-1911-yillarda Xo'jayli, Qo'ng'irot, To'rtko'l, Gurlan va Shovotda ham yangi usul maktablari

<sup>4</sup> N.Polvonov "Xorazmdagi ijtimoiy xarakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900-1924)" – T, 2011 yil. 39-bet.

<sup>5</sup> Xorazm tarixi. I jild. - Urganch 1996-yil. 322-bet.

<sup>6</sup> N.Polvonov "Xorazmdagi ijtimoiy xarakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900-1924)" – T, 2011 yil. 43-bet.



ochishga erishildi. Bu maktabda Xusayn Qo'shaqov bilan birgalikda Komila Qo'shaqova, Yusuf Ahmadov, Muhammad Sharif Xudayberganov va boshqalar o'qituvchilik qildilar<sup>7</sup>.

Shu bilan birga, jadidchilik Xiva xonligida asosan yuqori va o'rta tabaqa vakillari orasida kengroq yoyilgan. Xiva xonligida muholifat darajasida bo'lib, eski tartib tarafdorlariga qarshi yangilik, islohot tarafdorlari harakati edi. Yosh xivaliklar partiya sifatida o'sib chiqdi va siyosiy harakat darajasiga ko'tarila bordi.

1904-1905 yillarda hamfikrlar, 1910-yil boshlarida manfaatlar guruxi sifatida shakllangan bolsa, 1917-yilda amaldorlar, marifatli boylar, milliy burjuaziya va ziyolilarning Xiva xonligiga muholifat bo'lgan siyosiy kuchi, 1918-yilda esa rasmiy siyosiy partiya sifatida namoyon bo'lgan. Ular dunyoqarashining shakllanishi va tadrijiy rivojlanisida xonlikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, Turkiya, Eron, Rossiya Turkistondagi siyosiy o'zgarishlar ob'ektiv sharoit sifatida katta ta'sir qilgan, rus inqilobchilari, soldat shorolari va Turkistondagi mahalliy inqilobchilar ta'siri sub'ektiv omil sifatida katta rol o'ynagan.

Demak, jadidchilik harakatidan o'sib chiqqan Yosh Xivaliklar partiyasi 1918 yil iyun oyida Xorazm aholisi manfaatlarini himoya qiluvchi, o'z dasturi va tashkiliy tuzilishga ega bo'lgan rasmiy siyosiy partiya sifatida to'la shakillandi.

## References:

1. N.Polvonov "Xorazmdagi ijtimoiy xarakatlar va siyosiy partiyalar tarixi" (1900-1924) T.:2011 yil. 30-bet.
2. Xorazm tarixi II-Tom.- Urganch.1997-yil.13-bet.
3. Polvonniyoz Xoji Yusupov. "Yosh Xivaliklar tarixi". – Urganch, 2000-yil 6-bet.
4. N.Polvonov "Xorazmdagi ijtimoiy xarakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900-1924)" – T, 2011 yil. 39-bet.

<sup>7</sup> Xorazm tarixi.urganch 1996-yil. 322-323-betlar.